

## V. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

### **Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari** (2024- yil yanvar-mart)



2024- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 8 602,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan, Toshkent viloyatining respublikadagi ulushi umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 6,7 %ini tashkil qildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2024- yil yanvar-mart oylarida)


	mlrd. so'm	2023- yil yanvar- martga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
<b>Jami xizmatlar:</b>	<b>8 602,0</b>	<b>112,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan, xizmat turlari bo'yicha:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	293,2	118,4	3,4
Moliyaviy xizmatlar	1 255,3	112,5	14,6
Transport xizmatlari	1 965,7	111,2	22,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 848,9</i>	<i>110,2</i>	<i>21,5</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	402,1	110,5	4,7
Savdo xizmatlari	2 796,2	111,0	32,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	268,9	111,8	3,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	175,0	118,4	2,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	214,6	120,1	2,5
Ijara xizmatlari	234,4	113,3	2,7
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	187,5	107,3	2,2
Shaxsiy xizmatlar	257,5	109,1	3,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	165,9	118,9	1,9
Boshqa xizmatlar	385,7	122,2	4,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan Toshkent viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

**IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA  
KO‘RSATILGAN BOZOR XIZMATLARI**


Toshkent viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi muhim omil bu iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdir. Bugungi kunda yangi texnologiyalar faol joriy etilmoqda, infratuzilma va ta’lim rivojlanmoqda, bu xizmatlar sohasining tez o’sishiga yordam beradi.

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining  
o‘shishiga xizmat turlarining qo‘shgan hissasi  
(2024- yil yanvar-mart oylarida)**



Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘shishining asosiy omili savdo xizmatlarining – 11,0 %ga o‘sishi (ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining 3,6 punkt o‘shishiga qo‘shgan hissasi), transport xizmatlari – 11,2 %ga (2,6 punkt o‘shishiga qo‘shgan hissasi), moliyaviy xizmatlar – 12,5 %ga (1,8 punkt o‘shishiga qo‘shgan hissasi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 18,4 %ga (0,6 punkt o‘shishiga qo‘shgan hissasi), yashash va ovqatlanish xizmatlari – 10,5 %ga (0,5 punkt o‘shishiga qo‘shgan hissasi), shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 20,1 %ga (0,5 punkt o‘shishiga qo‘shgan hissasi) va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar – 11,8 %ga ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining o‘shishiga qo‘shgan hissasi 0,4 punktni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2024- yil yanvar-mart oylarida)




2024- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi viloyat bo'yicha umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i 70,2 %ni tashkil etdi (2023- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 70,4 %ga to'g'ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,4 %ni tashkil etdi (2023- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 20,8 %ga to'g'ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,4 %ni tashkil qildi (2023- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 8,8 %ga to'g'ri kelgan).


**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, %da  
(2024- yil yanvar-mart oylarida)**



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yuqori Chirchiq (113,3 %), Bo'stonliq va Toshkent (112,8 %) tumanlarida hamda Olmaliq (113,3 %) va Bekobod (112,7 %) shaharlarida qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o'sish sur'atlari Quyichirchiq (112,2 %), Ohangaron (112,1 %), Zangiota (111,9 %), Yangiyo'l (111,7 %) tumanlarida hamda Angren (111,9 %) va Ohangaron (111,4 %) shaharlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da  
(2024- yil yanvar-mart oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (122,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,1 %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (118,9 %)da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar yashash va ovqatlanish xizmatlari (110,5 %), shaxsiy xizmatlar (109,1 %) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (107,3 %)da qayd etildi.


2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan  
xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2023- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da	ming so'm	2023- yil yanvar-martga nisbatan % hisobida
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>8 602,0</b>	<b>112,8</b>	<b>100,0</b>	<b>2 812,1</b>	<b>110,3</b>
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	251,8	112,4	2,9	4 472,2	108,4
Olmaliq	620,0	113,3	7,2	4 223,5	109,8
Angren	590,5	111,9	6,9	3 228,5	109,6
Bekobod	412,7	112,7	4,8	3 945,8	110,3
Ohangaron	170,9	111,4	2,0	4 127,9	109,8
Chirchiq	716,1	112,5	8,3	4 134,4	109,4
Yangiyo'l	387,0	112,4	4,5	4 515,8	107,8
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	235,7	112,5	2,7	2 097,4	110,6
Ohangaron	131,2	112,1	1,5	1 176,7	110,1
Bekobod	261,4	112,3	3,0	1 574,8	110,6
Bo'stonliq	540,6	112,8	6,3	3 056,0	111,9
Bo'ka	253,7	112,4	2,9	1 883,2	110,9
Quyichirchiq	179,0	112,2	2,1	1 541,9	110,5
Zangiota	826,7	111,9	9,6	4 815,0	109,3
Yuqorichirchiq	342,6	113,3	4,0	2 455,6	111,8
Qibray	736,4	112,3	8,6	4 188,6	110,6
Parkent	330,0	112,5	3,8	1 846,7	110,5
Piskent	145,2	112,4	1,7	1 427,6	112,6
O'rta Chirchiq	276,1	112,6	3,2	2 008,0	110,5
Chinoz	280,9	112,6	3,3	1 926,8	110,4
Yangiyo'l	417,9	111,7	4,9	2 084,3	110,0
Toshkent	495,6	112,8	5,8	2 488,1	109,5

2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Zangiota tumanida qayd etildi – (9,6 %) (2023- yilning mos davrida– 9,7 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkich Ohangaron tumanida – 1,5 % (2023- yilning mos davrida – 1,5 %) qayd etildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2 812,1 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 110,3 %ni tashkil etdi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘shish sur‘ati, %da**



2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar Piskent (112,6 %), Bo‘stonliq (111,9 %), Yuqori Chirchiq (111,8 %), Bo‘ka (110,9 %) va Oqqo‘rg‘on (110,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Zangiota tumanida (109,3 %), Nurafshon (108,4 %) va Yangiyo‘l (107,8 %) shaharlarida qayd etildi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
xizmatlar hajmi, ming so'm**

Toshkent viloyati		2 812,1	
Nurafshon sh.	4 472,2	Bo'ka t.	1 883,2
Olmaliq sh.	2 223,5	Quyi Chirchiq t.	1 541,9
Angren sh.	3 228,5	Zangiota t.	4 815,0
Bekobod sh.	3 945,8	Yuqori Chirchiq t.	2 455,6
Ohangaron sh.	4 127,9	Qibray t.	4 188,6
Chirchiq sh.	4 134,4	Parkent t.	1 846,7
Yangiyo'l sh.	4 515,8	Piskent t.	1 427,6
Oqqo'rg'on t.	2 097,4	O'rta Chirchiq t.	2 008,0
Ohangaron t.	1 176,7	Chinoz t.	1 926,8
Bekobod t.	1 574,8	Yangiyo'l t.	2 084,3
Bo'stonliq t.	3 056,0	Toshkent t.	2 488,1


Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar hajmi Zangiota tumanida – 4 815,0 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,3 %), Yangiyo'l shahrida – 4 515,8 ming so'mni (107,8 %) va Nurafshon shahrida – 4 472,2 ming so'mni (108,4 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng past xizmatlar hajmi Quyi Chirchiq tumanida – 1 541,9 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,5 %), Piskent tumanida – 1 427,6 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,6 %) va Ohangaron tumanida – 1 176,7 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
faoliyatining ulushi, %da

(2024- yil yanvar-mart oylarida)

Yanvar-mart 2023- y.      Yanvar-mart 2024- y.



2024- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 70,2 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Yuqori Chirchiq (82,0 %), Parkent (81,3 %) tumanlariga hamda Yangiyo'l shahriga (83,9 %) to'g'ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Chinoz (59,8 %), Qibray (58,1 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (44,2 %) kuzatildi.